

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT
O'QITUVCHILARINIG ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Tojiboyev Jahongir Umidjon o'g'li
FarDU Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Kalit so'zlar: *Kreativlik, potensial, ijodiy tafakkur, motivatsion, emotsional, intellektual.*

Mamlakatimizda yoshlarni ma'naviy-axloqiy, jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida olib borilgan islohotlar natijasida talabalar o'rtasida halqimiz ma'naviyati, milliy qadriyatlarini targ'iboti uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib, g'oyaviy-estetik tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari, texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'zining "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" asarida "Biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi globallashuv davri uta shiddat bilan uzgarayotgani va turli taxdidlar ko'pligi bilan oldimizga hal etishni kechiktirib bo'lmaydigan g'oyat murakkab vazifalarni qo'ymoqda"¹, degan dolzarb muammoni kun tartibiga qo'ydi.

Kreativlik (ingl. "create" - yaratish, "creative" - "yaratuvchi", "ijodkor") - individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.²

Kreativlik uchun quyidagilar muhim bo'lib hisoblanadi: pedagogik masalalarning ko'p xilligi va ularni hal etishning variativligini tushunish, o'z mahoratining darajasi va tavsifini hamda uni rivojlantirish mumkinligini tushunish, uni takomillashtirish xohishi, yangi yechimlar zarurligini tushunishi va unga psixik tayyorgarlik hamda uni amalga oshirishga ishonch.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin.

Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb, uning fikrlaridagi, sezgilaridagi, mulqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin.

Kreativlik - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi.

O'rganilayotgan muammoga V.A.Slastyonin, L.S.Podimova, N.M.Gnatko qarashlari bilan birgalikda, kreativlik mexanizmini ikki turga bo'lishni taklif qiladilar:

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккиёт йулимизни катъият билан давом эттириб, янги боскичга кутарамиз. Асарлар1-жилд. Тошкент: Узбекистон НМУ, 2017, 45-б

² Кузмина Н.В. Основы акмеологии. М.,2007

1. Potentsial

2. Dolzarb.

Potentsial kreativlik - muallifning fikricha, kreativlik faoliyatidir, individiumni potentsial joylashuvi ma lum tashqi sharoitlarda dolzarb kreativlikni egallashning asos tayyorgarligini tashkil etadi; potentsial kreativlik - ijodning sub'ektiv zarur sharoitidir.

V.A.Slastenin, L.S.Podimova potentsial kreativlikning dolzarb kreativlikka izchil taqlid qilish mexanizmi orqali o'tishi muammosiga o'ziga xos yondashganlar.

Shunday qilib, kreativlik taqlid qilish, nusxa ko'chirishdan ijodiy nusxa ko'chirish, taqlidiy ijod va haqiqiy ijodkorlikka tomon rivojlanib boradi. Tabiiyki, barcha o'qituvchilar ham kreativ rivojlanishning barcha bosqichlari bilan tavsiflanmaydilar:

- ba'zilar tayyor metodik tavsiyalardan nusxa olib, faqat birinchi darajaga erishadilar;
- ikkinchilari to'liq kontseptsiya va tizimlarga ega bo'lmasdan turib, ba'zi metodik usullarga o'zgartirishlar kiritadilar;
- uchinchilari malum g'oya asosida to'liq mazmun, metod va shakllarni ishlab chiqadilar;
- to'rtinchilar esa ta'lim va tarbiyada o'zlarining kontseptsiya va metodikalarini tavsiya etadilar.

Yuqoridagilarga munosabat bildirib aytish mumkinki, dastlabki uchtasi taqlid bosqichida bo'lib, to'rtinchisi ularga qarama-qarshi tarzda ijod bosqichida.

Intellectual faollik darajasini belgilangan kreativlik bosqichlari bilan taqqoslash, ikkala yo'nalish orasida malum mutanosiblikni, innovatsion- pedagogik faoliyatning bir necha bosqichda takomillashib borish darajasidagi tushunchalarni aniqlashga imkon berdi. Pedagog faolligining borgan sari yuqoriroq darajadagi faoliyatga ko'tarilib borishi kelajakda innovatsion ta'lim strategiyasini tashkil qilishni belgilaydi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, kreativlik pedagogik nuqtayi nazardan quyidagi komponentlarni tashkil etadi:

- Shaxsning o'ziga xos xususiyatidir;
- Ijodiy imkoniyat;
- Shaxsning intellektual va individual;
- Ijodiy fikrlash;
- Ijodiy tafakkur;
- Yechim toppish;
- Bilimlilik;
- Tashkilotchilik;
- Bilim, faoliyat, istak;
- Pedagogik mahorat;
- Shaxsiy sifatlarning integratsiyasi;
- Muammollarni mustaqil yechish.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkoni beradi:

1. Intellektual (aqliy);

2. Axloqiy (o'z-o'zini boshqarish);
3. Motivatsion (maqsadli);
4. Emotsional (his hayajonli).³

Shaxs ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan, tarbiya omili, ijtimoiy, ishlab chiqarish, madaniy, ilmiy faoliyat va shaxsiy aloqalar omilidan iborat tashqi omillarning hamda biologik va psixologik omildan iborat ichki omillarning ta'siri natijasida shakllanadi. Shunday omillarning biri yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishdir. Ushbu jarayonni amalga oshirishda Kreativ yondashuv asosida talabalarning estetik kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev SH.M. We will restore the free and prosperous, democratic state of Uzbekistan together. " Uzbekistan " 2016 2. Xalilov R. Hammer the role of pencil sharpener in directing teachers of Fine Arts to the profession. 2021

2. Siddikov, B. S. "THE IMPORTANCE OF SPORTS AND RECREATION ACTIVITIES FOR A HARMONIOUSLY DEVELOPED GENERATION." Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. 2020. 5.

3. Tuychieva, Inoyatkhon I. "Mechanisms Ensuring Children's Thought Activity Development at Preschool Education Process." Eastern European Scientific Journal 6 (2018). 7.

4. Jalalov, Bakhromjon Bekmurzaevich, H. A. Khatamov, and F. U. Na saidenova. "Advantages of collective learning." Scientist of the XXI century (2016)

5. Jahongir Umidjon O'G'Li Tojiboyev (2022). TALABALARDA ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. Academic research in educational sciences, 3 (1), 585-594. doi:10.24412/2181-1385-2022-1-585-594

6. SAIDKULOVICH, S.B., & UGLI, T. J. U. The Social Pedagogical Necessity of Developing Students' Aesthetic Culture in the Process of Globalization. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 8(1), 75-77.

7. Umidjon o'g'li, T. J. (2022, November). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 3, pp. 42-44).

³ D.Yo'ldosheva. Akmeologik yondashuv asosida oliy o'quv yurti talabalarining kreativ kompetentligini rivojlantirish: magistrlik dissertatsiyasi. - Farg'ona, 2020. – B. 21.